

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MUDOFAA VAZIRI  
B. KURBANOV



\_\_\_\_\_ 2020 yil

“TASDIQLAYMAN”

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRI  
I. MADJIDOV



\_\_\_\_\_ 2020 yil

**O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalariga “Chaqiriqqacha  
harbiy ta‘lim” yo‘nalishi bo‘yicha qabul qilishda kasbiy (ijodiy)  
imtihon o‘tkazish  
DASTURI**

**5111500 - “Chaqiriqqacha harbiy ta‘lim” yo‘nalishi uchun**

**Toshkent – 2020**

Dastur Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2020 yil « 18 » 06 dagi 11 - sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar: A.A. Uzoqov. Nizomiy nomidagi TDPU, harbiy ta'lim fakulteti boshlig'i, podpolkovnik

A.Sotvoldiyev. Nizomiy nomidagi TDPU, Harbiy ta'lim fakulteti katta o'qituvchisi, dotsent.

Taqrizchilar: A.Axmedjanov. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent "Temurbeklar maktabi" CHQBT fani o'qituvchisi istefodagi podpolkovnik.

A.Majidov. O'zbekiston Respublikasi Badiy Akademiyasi qo'shidagi respublika iqtisoslashgan dizayn maktabi CHQBT raxbari, iztefodagi mayor.

## **I. Kirish**

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishga qabul qilish uchun tuzilgan kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkazish dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 - oktyabrdagi 809-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil 5-dekabrdagi 34, 27-2017 - son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 5-aprelda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 2995) muvofiq O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha qabul qilishda kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkazish tartibini belgilaydi.

## **II. Imtihonning asosiy maqsadi**

Abituriyentlarning tanlagan yo‘nalishiga ta’luqli fan bo‘yicha bilim ko‘nikmalari va darajasini, abituriyent o‘zi tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olish va kelgusida sohada ishlash imkoniyatini belgilaydigan ijodiy, jismoniy va fiziologik qobiliyatini baholashdan iborat.

Ushbu dastur 2020/2021 o‘quv yulida abituriyentlarni o‘qishga qabul qilish jarayonida “koronavirus” pandemiyasi munosabati bilan, O‘zbekiston Respublikasidagi karantin davrida tadbiriq etilgan qonun va qoida talablariga amal qilinishini ko‘zda tutadi.

### **III. Abiturient bilimiga qo'yiladigan talablar:**

#### **Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik dasturi bo'yicha**

Abiturient:

- Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quv dasturidagi umumdavlat majburiy o'quv fani ekanligini;
- Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning mohiyati, maqsadi va vazifasini;
- Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik dasturining umumiy mazmunini;
- Mustaqil O'zbekiston Respublikasida Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning tarixiy zaruriyati, uning bugungi kundagi ahamiyatini;
- O'zbekiston Respublikasi Mudofaasi - davlatning muhim vazifasi ekanligini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasining mohiyati, maqsadi va xarakterini bilishi kerak.

#### **3.1. Harbiy xizmat asoslari bo'yicha**

Abiturient:

- O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» hamda «Mudofaa to'g'risida»gi Qonunlari talablarini;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro'yxati to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash to'g'risidagi qarorini;
- harbiy jinoyat, xizmatdan bosh tortganligi uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik qonunchiligi haqidagi asosiy qoidalarni;
- O'zbekiston Respublikasi mudofaa doktrinasining tinch sharoitda va urush vaqtida Qurolli Kuchlarning vazifalari, tarkibi, tuzilish prinsiplari, strategiyasi va qo'llash shart-sharoitlarining asosiy qoidalarini;
- harbiy intizom asoslarini, harbiy nizom, uning harbiy qism va seksiyalar hayoti va faoliyatidagi o'rnini, harbiycha xushmuomalalik qoidalarini, o'zini tutish va harbiycha salomlashishni, askarning safga turishdan oldingi va safdagi majburiyatlarini;
- qurolli to'qnashuvlar huquqining mohiyati, tamoyillari, harbiy zaruriyat va ularga rioya qilishning zarurligini bilishi kerak.

### **3.2. Otish tayyorgarligi bo'yicha**

Abiturient:

- Kalashnikov avtomati, GP-25 stvol osti granatamyoti, parchalanuvchi qo'l va tankka qarshi granatalarining jangovar xususiyatlari, tuzilishi, ishlash prinsiplarini;
- qo'zg'almas va paydo bo'luvchi nishonlarga otish qoidalarini;
- avtomatni otishga tayyorlashni, unda qo'zg'almas va paydo bo'luvchi nishonlarga otish usullarini bajarishni;
- avtomatni tozalashni va moylashni;
- burchak kattaligi yordamida nishongacha bo'lgan masofani aniqlash usullarini;
- parchalanuvchi qo'l va tankka qarshi granatalarni, har xil holatda uzoqlikka va aniqlikka uloqtirish texnikasini;
- parchalanuvchi qo'l va tankka qarshi granatalarni uloqtirish mashqlarini bajarishni bilishi kerak.

Abiturient:

- "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" o'quv fani dasturiga muvofiq pnevmatik miltiqdan otish mashqini bajarish malakasiga ega bo'lishi kerak.

### **3.3. Amaliy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha**

Abiturient:

- O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunini;
- yo'naltirilgan-jismoniy tayyorgarlik bo'yicha me'yorlarni;
- Qurolli Kuchlarda o'tkaziladigan jismoniy mashqlar majmualarini;
- to'siqlar yo'lagini yengib o'tish tartibini;
- yoshlarni sog'lomlashtirish bo'yicha o'tkaziladigan musobaqa va tadbirlar mohiyatini;
- tanani sog'lomlashtirish va chiniqtirish yo'lidagi estetik va gigienik talablarni bilishi kerak.

Abiturient:

- dasturda ko'zda tutilgan turnikda tortilish, 100 va 3000 metrga yugurish bo'yicha vaqt me'yorlarini bajara olish ko'nikma va malakasiga ega bo'lishi kerak.

### **3.4. Harbiy ish asoslari bo'yicha**

Abiturient:

- zamonaviy armiyalarning qurol-aslaha va texnikalarini jangovar xususiyatlari haqida;
- umumqo'shin jangi asoslarini, askarning jangovar majburiyatini, o't ochish va manyovr (jang maydonida qo'shinlarning dushmanga zarba berish uchun qulay vaziyatni egallash maqsadidagi harakati) turlari va razvedka o'tkazish asoslarini;
- otish va kuzatish uchun joy tanlashni va uni jihozlashni;
- belgilangan maydonda kuzatuv olib borishni, joy atrofidagi narsalarga nisbatan nishonlarning joylanishini aniqlashni, kuzatuv natijalari to'g'risida axborot berishni;
- parchalanuvchi va tankka qarshi qo'l granatalarini qo'llashni;
- tankka qarshi minalarni o'rnatish, ular o'rnatilgan joylarni aniqlash va guruh (seksiya) tarkibida mina maydonlaridan yo'l ochib o'tishni; jang maydonida turli usullar bilan harakatlanish tartibini bilishi kerak.

### **3.5. Fuqaro muhofazasi bo'yicha**

Abiturient:

- O'zbekiston Respublikasi hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va ularning kelib chiqish sabablari mohiyatini;
- ob'ekt va korxonalarda (ta'lim muassasalarida) fuqaro muhofazasining vazifalari va tashkiliy tuzilishini;
- aholini evakuatsiya qilish qoidalari va usullari, halokat, falokatlar tufayli zararlangan hududlarda favqulodda holatlarni bartaraf etish, qutqarish va boshqa shoshilinch chora-tadbirlarni tashkil etish hamda o'tkazish usullarini;

- O‘zbekiston Respublikasi aholisini va milliy boyliklarini sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan falokat, halokat va tabiiy ofatlar oqibatlaridan himoya qilish maqsadida amalga oshirilayotgan umumdavlat chora-tadbirlari tizimini;
- xalq xo‘jaligida qo‘llaniladigan kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar (KTEZM), radioaktiv va zaharlovchi moddalar, biologik (bakteriologik) va boshqa ommaviy shikastlovchi vositalarining ta’siridan muhofazalanishni;
- radiatsion, kimyoviy razvedka dozimetrik nazorat qilish uskunalari ishga tayyorlashni;
- himoya inshootlarining vazifalari va tuzilishini;
- biron bir xavf haqida yoki xavf tug‘ilganda aholini ogohlantirish tartibi, favqulodda vaziyatlar sharoitlarida o‘zini tutish qoidalari va himoyalaniish usullarini;
- fuqaro muhofazasi signallari bo‘yicha harakat qilishni bilishi kerak.

#### **IV. Baholash mezonlari.**

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar **3 (uch) bosqichda** o'tkaziladi va OTMga o'qishga kirishda fanlar blokidagi o'ringa qarab (**II fanlar bloki – 93.0 ball**) baholanadi.

#### **V. Umumjismoniy tayyorgarlik**

##### **5.1 Umumiy qoidalar**

Abituriyentlarning umumjismoniy tayyorgarligi darajasi ularning mazkur Dasturda nazarda tutilgan tegishli mashqlarni bajarishini tekshirish orqali baholanadi.

Abituriyentlarga dastlab mashqlarni bajarishga qo'yiladigan talablar va mezonlar hamda mashqlarni bajarish tartibi imtihon o'tkazish bo'yicha komissiya tarkibiga kiritilgan mutaxassislar tomonidan tushuntiriladi.

Umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tadbirlariga abituriyentlar sport kiyimida hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjati bilan kelishlari lozim.

Abituriyentlar quyidagi mashqlarni bajaradi:

- turnikda tortilish mashqi;
- 100 metrga yugurish mashqi;
- 3000 metrga yugurish mashqi.

##### **5.2. Turnikda tortilish mashqi**

Turnikda tortilish mashqini bajarishda:

bosh barmoq poya ichkarisidan ushlanadi, tana biroz rostlanadi, tizza bo'g'imi to'g'irlanadi, oyoq uchlari cho'ziladi, tovonlar birlashtiriladi;

iyak turnik poyasidan o'tgunga qadar qo'llar bukiladi;

harakat to'liq amalga oshirilishi bilan dastlabki holatga qaytiladi (osilish holati 1-2 soniya davom etadi).

Ushbu mashqni bajarishda oyoqlarni kerish, tanani harakatsiz holatda egish hamda oyoqlar bilan siltanma harakatlar qilish taqiqlanadi.

Juft tutilgan oyoqlarni 45° gacha bukishga ruxsat beriladi.

Abituriyentlarning turnikda tortilish mashqi to'rt bosqichli tizimda quyidagicha baholanadi:

- 12 marotaba va undan ko‘p tortilganda — 9 ball;
- 10-11 marotaba tortilganda — 6 ball;
- 8-9 marotaba tortilganda — 3 ball;
- 1-7 marotaba yoxud umuman tortila olmaganida — 0 ball.

### **5.3. 100 metrga yugurish mashqi**

yuqori yoki quyi startdan amalga oshiriladi;  
stadionning yugurish yo‘lakchasi yoki qattiq qoplamli tekis joylarda o‘tkaziladi.

Abituriyentlarning 100 metrga yugurish mashqi to‘rt bosqichli tizimda quyidagicha baholanadi:

- 14,0 soniya ichida bajargan taqdirda — 9 ball;
- 14,1 — 14,4 soniyada bajargan taqdirda — 6 ball;
- 14,5 — 15,2 soniyada bajargan taqdirda — 3 ball;
- 15,3 soniyada va undan ko‘p vaqtda bajargan taqdirda — 0 ball.

### **5.4. 3000 metrga yugurish mashqi**

3000 metrga yugurish mashqlari stadionning yugurish yo‘lakchalari yoki tekis joylarida umumiy yoki alohida start berilgan holda o‘tkaziladi. Start va marra chiziqlari bir joyda belgilanishi mumkin.

Abituriyentlarning 3000 metrga yugurish mashqi to‘rt bosqichli tizimda quyidagicha baholanadi:

- 12,40 daqiqa va undan kamroq vaqt ichida bajargan taqdirda — 13 ball;
- 12,41 daqiqadan 13,20 daqiqagacha bajargan taqdirda — 9 ball;
- 13,21 daqiqadan 14,00 daqiqagacha bajargan taqdirda — 5 ball;
- 14,01 daqiqadan ko‘p vaqtda bajargan taqdirda — 0 ball.

### **5.5. Yakuniy qoidalar**

Abituriyentlarning umumjismaniy tayyorgarligi darajasini baholash natijalari ularning uchta normativda to‘plangan ballar yig‘indisidan tashkil topadi.

Umumjismaniy tayyorgarlik sinovlaridan o‘tmagan abituriyentlarga mashqlarni takroriy bajarishga ruxsat berilmaydi.

Umumjismoniy tayyorgarlik sinovlarini topshirgan abituriyentlarga qaydnoma rasmiylashtiriladi.

Mazkur qaydnomada abituriyentlar tomonidan bajarilgan mashqlar va ular uchun qo'yilgan ballar ko'rsatiladi.

Qaydnoma imtihon o'tkazish bo'yicha komissiya raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi.

## **VI. O‘q otish tayyorgarligi**

### **6.1 Umumiy qoidalar**

Abituriyentlarni o‘q otish tayyorgarligi bo‘yicha nazorat normativi mazkur Dasturda nazarda tutilgan tegishli mashqlarni bajarishini tekshirish orqali baholanadi.

Abituriyentlarga dastlab mashqlarni bajarishga qo‘yiladigan talablar va mezonlar, mashqlarni bajarish tartibi hamda o‘q otish paytida xavfsizlik choralariga rioya qilinishi imtihon o‘tkazish bo‘yicha komissiya tarkibiga kiritilgan mutaxassislar tomonidan tushuntiriladi.

Abituriyentlarning o‘q otish tayyorgarligi pnevmatik miltig‘idan nishonga aniq otish mashqini bajarishi orqali baholanadi.

O‘q otish tayyorgarligi bo‘yicha nazorat normativini bajarish uchun abituriyentlar shaxsini tasdiqlovchi hujjati bilan kelishlari lozim.

### **6.2. O‘q otish tayyorgarligi bo‘yicha nazorat normativini bajarishga qo‘yiladigan talablar va mezonlar**

Pnevmatik miltig‘idan nishonga aniq otish mashqini bajarish shartlari:

qurol — pnevmatik miltiq;

o‘q — qo‘rg‘oshinli;

nishon — 8-son nishon;

oraliq — 5 metr (nishondan stolning old chekkasigacha);

o‘qlar soni:

3 ta sinab ko‘rishga;

5 ta nazorat uchun;

o‘q otish holati — tik taqab turib, stolga tayangan yoki tik qotgan holda;

o‘q otish uchun vaqt — chegaralanmagan.

O‘q otish mashqini bajarish quyidagi tartibda baholanadi:

5 ta nazorat o‘qi bilan 40 va undan yuqori ochko to‘plasa — 31 ball;

5 ta nazorat o‘qi bilan 35 dan 39 ochkogacha to‘plasa — 20,7 ball;

5 ta nazorat o‘qi bilan 30 dan 34 ochkogacha to‘plasa — 10,3 ball;

5 ta nazorat o‘qi bilan 29 va undan past ochko to‘plasa — 0 ball.

### **6.3. Yakuniy qoidalar**

Abituriyentlar o‘q otish mashqini bajargan nishonni ko‘zdan kechiradi, to‘plangan ochkolari bilan tanishadi hamda uni imzosi bilan tasdiqlaydi.

O‘q otish tayyorgarligi bo‘yicha nazorat normativini topshirgan abituriyentlarga qaydnoma rasmiylashtiriladi.

Mazkur qaydnomada abituriyentlar tomonidan to‘plagan ochko va ballar ko‘rsatiladi.

Qaydnoma imtihon o‘tkazish bo‘yicha komissiya raisi va a‘zolari tomonidan imzolanadi.

## **VII. Chaqiriqqacha boshlang‘ich tayyorgarlik bo‘yicha bilim darajasini baholash**

### **7.1. Umumiy qoidalar**

Abituriyentlarning chaqiriqqacha boshlang‘ich tayyorgarlik bo‘yicha bilim darajasi test o‘tkazish usuli orqali aniqlanadi.

Testni o‘tkazish uchun imtihon o‘tkazish bo‘yicha komissiya tomonidan chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik dasturidan test savollari ishlab chiqiladi.

Test savollari imtihon o‘tkazish bo‘yicha komissiya majlisi bayoni bilan tasdiqlanadi.

Test savollari va ularning javoblari imtihon o‘tkazish bo‘yicha komissiya raisida saqlanadi va ularning oshkor qilinmasligi uchun mas’ul hisoblanadi.

Test imtihon o‘tkazish bo‘yicha komissiya tomonidan belgilangan joyda o‘tkaziladi. Bunda test o‘tkazish uchun oliy ta’lim muassasalari tomonidan alohida auditoriyalar ajratiladi va har bir auditoriyaga oliy ta’lim muassasalari xodimlari orasidan auditoriya rahbari tayinlanadi.

Abituriyentlarga testni o‘zlari tanlagan tilda topshirishini tanlash huquqi beriladi.

## 7.2. Test sinovlarini o'tkazish

Test sinovlari imtihon o'tkazish bo'yicha komissiya tomonidan belgilangan joy, kun va vaqtda o'tkaziladi.

Belgilangan vaqtda test sinovlariga kelmagan abituriyentlar uchun qo'shimcha test sinovlari o'tkazilmaydi.

Test sinovlari o'tkazilayotgan auditoriyaga mikrokalkulyator, jadval, kitob, uyali telefon, kompyuter, telekommunikatsiya vositalari va shpargalkalar olib kirish taqiqlanadi.

Abituriyentlarga test topshiriqlarini bajarish uchun 31 ta test savoli beriladi.

Test savollarini echish uchun 50 daqiqa vaqt beriladi. Test sinovlarini o'tkazishni boshlashdan avval auditoriya rahbari talabalarga test sinovlari o'tkazish hamda javoblar varag'ini to'ldirish tartibini tushuntirishi uchun test savollarini yechish uchun berilgan vaqtga kirmaydigan qo'shimcha 10 daqiqa vaqt beriladi.

Abituriyentlarga beriladigan test savollari kitob shaklida bo'ladi va uning titul varag'ida test savollari kitobining maxsus kodi qo'yiladi.

Har bir test savolida 4 tadan javob varianti beriladi. Abituriyentlar test savollarini yechishda faqat bitta to'g'ri javobni belgilashi lozim.

To'g'ri javob javoblar varag'iga belgilanadi. Bunda test savolida berilgan variantlardan (A, B, C, D) biri havorang pastali sharikli ruchkadan foydalanilgan holda doiraga olish orqali belgilanadi.

Javoblarni belgilashda o'chirish va tuzatishlarga hamda bir nechta javobni belgilashga yo'l qo'yilmaydi. Agar ikkita va undan ortiq javob belgilansa, shu savolga javob noto'g'ri deb hisoblanadi.

Javoblar to'g'ri belgilanishi uchun abituriyent shaxsan javobgardir. Javoblarni noto'g'ri belgilagan abituriyentlarning e'tirozi ko'rib chiqilmaydi.

Javoblar varag'iga test sinovlari o'tkazilgan kun, test savollari kitobining maxsus kodi, auditoriya rahbarining F.I.O., test savollariga berilgan javoblarni tekshirish natijalari va ularni tekshirgan imtihon o'tkazish bo'yicha komissiya a'zolarining F.I.O. va imzosi ko'rsatiladi.

Test sinovlari vaqtida abituriyentni auditoriyadan chiqishi taqiqlanadi, abituriyentning sogʻligʻi yomonlashgan holatlar bundan mustasno.

Abituriyentga test sinovlarini qayta topshirishga ruxsat berilmaydi.

Test sinovlarini oʻtkazish vaqtida test sinovlari oʻtkazilayotgan auditoriyada abituriyentlar, auditoriya rahbari, imtihon oʻtkazish boʻyicha komissiya aʼzolaridan tashqari boshqa shaxslarning boʻlishi taqiqlanadi.

Test topshiriqlarini belgilangan muddatdan oldin bajargan yoki test topshiriqlarini bajarish uchun ajratilgan vaqt tugagach, abituriyentlar test materiallarini auditoriya rahbariga topshiradi.

Imtihon oʻtkazish boʻyicha komissiya aʼzolari test oʻtkazilgan kunning oʻzida test savollariga berilgan javoblarni tekshirib, natijalarni (toʻgʻri va notoʻgʻri javoblar soni) shu kunning oʻzida tegishlicha, har bir talabaning javoblar varagʻiga yozib qoʻyishi shart.

Test savollariga berilgan har bir toʻgʻri javob uchun 1 ball qoʻyiladi.

### **7.3. Yakuniy qoidalar**

Test sinovlari natijalarni (toʻgʻri va notoʻgʻri javoblar soni hamda umumiy bali) imtihon oʻtkazish boʻyicha komissiya aʼzolari tomonidan imzolangan, imtihon oʻtkazish boʻyicha komissiya raisi tomonidan tasdiqlangan holda shu kunning oʻzida soat 20:00 gacha eʼlon qilinadi.

### **VIII. Abituriyentlarning imtihon natijalari**

Abituriyentlarning imtihon natijalari boʻyicha umumiy bali ularning umumjismaniy tayyorgarligini, oʻq otish tayyorgarligi boʻyicha nazorat normativini bajarishini hamda chaqiriqqacha boshlangʻich tayyorgarlik dasturi boʻyicha bilim darajasini baholash natijasida toʻplagan ballarini qoʻshish natijasida aniqlanadi.

Oʻqishga kirishda imtihonni topshirishda toʻplash mumkin boʻlgan maksimal ballarning 33,3 foizidan (31 ball) kam ball toʻplagan abituriyentlar davlat test sinovlariga kiritilmaydi.

Imtihon yakunlari ballar miqdori sifatida, tanlov tartibida imtihon varaqasiga va imtihon ro'yxatiga kiritiladi. Mazkur hujjatlarning har biri komissiya raisi va qabul komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan imzolanadi.

Imtihon natijalari Davlat test markaziga qabul komissiyasi tomonidan 30-iyulgacha taqdim etiladi.

Reja-jadval bo'yicha imtihonlarga kelmagan abituriyentlar uchun qayta imtihon o'tkazilmaydi va ular davlat test sinovlariga qo'yilmaydi.

Imtihon natijalaridan norozi bo'lgan abituriyentlar qabul komissiyasi raisining buyrug'i bilan tuziladigan apellatsiya komissiyasiga apellatsiya berish huquqiga ega.

Apellatsiya komissiyasi tarkibiga komissiya faoliyatida ishtirok etmagan, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi mas'ul xodimlari hamda universitet xodimlari orasidan tuziladi.

Imtihon natijalari bo'yicha tushgan norozilik (apellatsiya) arizalari apellyatsiya komissiyasi tomonidan imtihon natijalari e'lon qilingandan so'ng 24 soat davomida ko'rib chiqiladi.



NIZOMIY NOMIDAGI TDPU REKTORI  
A. UMAROV

NIZOMIY NOMIDAGI TDPU HARBIY  
TA'LIM FAKULTETI BOSHIG'I  
podpolkovnik

A. UZOQOV